

Qadoqsimon tana

Corpus callosum chap va o'ng yarim-sharlarni bog'lovchi zich joylashgan tolalardan tashkil topgan. Ularga *komissural tolalar* deyiladi. Qadoqsimon tananing oldingi, o'rta va orqa qismlari farqlanadi.

Chap va o'ng tomondagi peshona po'stlog'ini bog'lovchi tolalar qadoqsimon tananing oldingi, ya'ni tizza qismidan o'tadi. Parietal po'stloqni bog'lovchi tolalar qadoqsimon tananing markaziy qismidan o'tsa, chakka va ensa bo'laklarini bog'laydigan tolalar uning orqa qismidan o'tadi.

Manba: © Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi © www.asab.uz